(E) ISSN: 3030-3214
Volume 2, № 2
June 2024

UO‘K: 622.235(043.3) 10.5281/zenodo.11484002

VOSTAYUSHIY LAHIM O‘TISH TEXNOLOGIYASI





Nomdorov Rustam Uralovich
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Konchilik ishi" kafedrasi,
t.f.f.d (PhD) dotsenti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail: rustamnomdorov@mail.ru
ORCID ID: 0009-0000-6987-8995

Saidov Kamronbek Anvar o‘g‘li
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti magistranti,
Qarshi, O'zbekiston

Annotatsiya. *Maqolada barcha loyihalar me'yoriy hujjatlar sanoat obyektlarini loyihalash va qurilishida yagona talablar o'rnatish uchun xizmat qiladi. Bu hujjatlar qurilish sifatini yaxshilash, qurish muddatini qisqartirish, smeta narxini kamaytirish (arzonlashtirish), atrof muhitni muhofazalash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.Shuning uchun lahimlarni yer ostida loyiha asosida joylashtirish muhim o'rin tutadi. Yer osti konlarida foydali qazilmani qazib olishda lahimlarni joylashtirish hamda foydali qazilmani qazib olishga tayyorlashda qo'llaniladigan lahim o'tish texnologiyasi va parametrlari ko'rsatilgan. Vostayushiy, ort, shtrek o'zaro bog'liqligi va joylashuv sxemasi keltirilgan va shu bilan birga bizning konlarimizdagi vostayushiyni o'tish tartibi, parametrlari, tasnifi, batafsil berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Vostayushiy, ort, shtrek, polok, nabelit, amfo, Ammonit JV-6.*

ВОССТАВШИЙ ИСПОЛЬЗУЕТ ТЕХНОЛОГИЮ

Номдоров Рустам Уралович
Каршинский инженерно-экономический институт, кафедра «Горное дело», доцент технических наук (PhD),
Карши, Узбекистан

Саидов Камронбек Анвар угли
Магистрант Каршинского инженерно-экономического института,
Карши, Узбекистан

Аннотация. *Все проекты нормативных документов в статье служат для установления единых требований при проектировании и строительстве промышленных объектов. Эти документы позволяют улучшить качество строительства, сократить сроки строительства, снизить сметную стоимость (удешевить), защитить окружающую среду, рационально использовать природные ресурсы. Поэтому важное место занимает проектное размещение паяльников под землей. Показаны технология и параметры перехода сплавов, применяемые при размещении сплавов при добыче полезных ископаемых на подземных месторождениях, а также при подготовке сплавов к добыче. Приведена схема взаимоотношений и месторасположения востаюши, Орта, штрека, а также подробно описан порядок прохождения, параметры, классификация востаюши на наших месторождениях.*

(E) ISSN: 3030-3214
Volume 2, № 2
June 2024

Ключевые слова. *Востающий, орт, шрек, полк, набелит, амфо, аммонит ЖВ-6.*

REBEL USES TECHNOLOGY

Nomdorov Rustam Uralovich
Karshi Engineering-Economics Institute, (PhD),
Karshi, Uzbekistan

Saidov Kamronbek Anvar ugli
Master's student at Karshi Engineering-Economics Institute,
Karshi, Uzbekistan

Abstract. *All draft regulatory documents in the article serve to establish uniform requirements for the design and construction of industrial facilities. These documents make it possible to improve the quality of construction, reduce construction time, reduce the estimated cost (cheaper), protect the environment, and rationally use natural resources. Therefore, the design placement of soldering irons underground occupies an important place. The technology and alloy transition parameters used when placing alloys during mining in underground deposits, as well as when preparing alloys for mining, are shown. A diagram of the relationship and location of the vostayusha, Orta, drift is given, and the order of passage, parameters, and classification of the vostayusha at our fields is described in detail.*

Keywords: *Vostayushiy, ort, shrek, regiment, whitelit, ampho, ammonite ZhV-6.*


Kirish. Vostayushiy yoki ko‘tarilma vertikal kon lahimi bo‘lib, yer yuzasi bilan tutashmagan bo‘ladi, pastdan yuqoriga qarab o‘tiladi. Ko‘tarilmaning 3 ta turi mavjud, bular:

1. Bir tabaqali
2. Ikki tabaqali
3. Uch tabaqali


Ba’zi manbalarda esa 1 tabaqali va ko‘p tabaqali deb yuritiladi, bularning barchasini asosiy vazifasi – kon bloklarini tayyorlash uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari bu lahim dan 1-navbatda havo harakatlantirish uchun qo‘llash mumkin, 2-si ruda tushirish uchun foydalanishimiz mumkin, 3-si odamlar ya’ni xodimlar tushib chiqishi uchun ishlatiladi. Vostayushiylar ko‘proq Zarmetan konida, Xondiza konida, Smarcho‘g‘ konida, Ko‘chbuloq konida ishlatiladi. Vostayushiyni diametri kamida 2.10-2.20 m atrofida bo‘ladi (1 tabaqali turi uchun). Demak, 2 tabaqalisini diametri 2 barobar ko‘p bo‘ladi. 3 tabaqali bo‘lsa 3 barobar ko‘p bo‘ladi. O‘zbekistondagi vostayushiyni balandligi 60 metrni tashkil qiladi. Vostayushiyni o‘tish uchun kamida 7-razryadli lahim o‘tuvchi (proxodchik) mutaxassis bo‘lishi shart. Vostayushiyni o‘tishda marksheyder ko‘rsatmasiga amal qiladi. Lahim o‘tishni kon masteri nazorat qiladi.

Materiallar va usullar. O‘tish tartibi: 1-bo‘lib kamida 6 metr balandlik port-latuvchi vositalar (nabelit, amfo, ammonit JV-6 va boshq.) yordamida portlatiladi. Biz bemalol 6 metrgacha bo‘lgan joyni narvon yordamida o‘tishimiz mumkin. Har 6 metrga narvon qo‘yilib, 1 metr tepaga chiqib turadi. 2-siklni portlatishda 3 ta polokdan foyda-lanamiz. 1-polok himoya pologi hisob-lanib, mutaxassis mobodo portlash vaqtida eh-tiyotsizlik oqibatida tushib ketadigan bo‘lsa, xodimni asrab qoladi. Himoya pologi shift (zaboy) dan 3 metr pastda bo‘ladi. Undan 1-1,5 metr atrofida yuk (gruz) qo‘yadigan polok bo‘ladi. Yuk qo‘yish pologi bu – lahim o‘tuvchu mutaxassis (proxodchik) o‘zi bilan burg‘ilovchi apparat, portlatuvchi

(E) ISSN: 3030-3214
Volume 2, № 2
June 2024



1-rasm. Loyihalashtirilgan blokni tayyorlash



2-rasm. Vostayushiyni joylashuvi

vositalar nima qo‘shimcha bo‘lsa shuni hammasini o‘zi bilan olib chiqadi. 3-si ishchi (rabochiy) polokda xodim ya’ni kon o‘tuvchi mutaxassis oyog‘ini qo‘yadi ishchining bo‘yiga qarab qo‘yiladi. Polok bu – qalin materialga ega bo‘lgan temir mato bo‘lib, bukchaymaydigan, sinmaydigan va deformatsiyaga moylligi bo‘lmagan metal-

(E) ISSN: 3030-3214
Volume 2, № 2
June 2024

dan yasalgan temir yo‘l relsiga o‘xshash temir bo‘ladi. Krest yoki J shaklida joylashtirilib, devorga 50-60 sm kiradi, usti yog‘och (strapila) dan taxlanadi ya’ni lahim o‘tuvchi xodim bemalol ustida harakatlanishi kerak va texnika xavfsizligiga to‘liq javob berishi shart.

Loyihada ko‘rsatilgan shpur uriladi. Loyihada 3 ta, 5 ta va 10 ta bo‘lishi mumkin ya’ni foydali qazilma yumshoq qattiqligiga qarab, yumshoq bo‘lsa 3 yoki 5 ta yetadi, agar qattiq bo‘lsa 10 ta shpur uriladi (1-rasm).

Tadqiqot natijalari. Portlatishdan oldin jangovar patron joylanadi, ichiga tiqin tiqiladi va ischi polok olib tashlanadi. Yuk (gruz) polok xalaqit qilsa u ham olib tashlanadi. Uning o‘rniga yo‘naltirish uchun mustahkam bo‘lgan polok qotiriladi. Qotirilgan material ya’ni parashutcha (soyaboncha) hosil qilinadi. Soyabonchaning vazifasi – portlagan foydali qazilma himoya pologini o‘pirib yuborishdan saqlash. Portlatish ishlari birin ketin to 60 metrni o‘tguncha xuddi shu tartibda davom etib ketadi. Bu ko‘tarilmani (vostayushiyni) o‘tish texnologiyasi deyiladi. Bu ishlarni kunlik marksheyder o‘lchab boradi (2-rasm).

Xulosa. Yer ostida lahim o‘tishda xavsizlik qoidalariga, loyihaga ko‘rsatilgan me’yoriy hujjatlarga va o‘tish texnologiyasiga amal qilinishi shart. Vostayushiy lahimi o‘tilishida kerakli parametrlar asosida va marksheyder mutaxasislarining ko‘rsatmasi asosida o‘tiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. М.И.Агошков, Г.М.Малахов. Подземная разработка рудных месторождений. Недр, Москва, 1966 г.
2. М.И.Агошков, С.С. Барисов, В.А. Боярский. Разработка рудных и нерудных месторождений. Недра, Москва,1983 г.
3. П.И. Городеский. Основы проектирования горных предприятий. Москва, Металлургиздат, 1955 г.
4. В.А. Шестаков. Проектирование горных предприятий. Москва издателства МГГУ, 1995 г.
5. Единые правила охрана недр при разработке месторождений твердых полезных ископаемых Москва, Недра, 1987 г.
6. В.Р. Именитов. Процессы подземных работ при разработке рудных месторождений. Москва, Недра, 1984 г.
7. Методология проектирования горных предприятий. Справочник, Москва, Недра, 1986 г.